AMIR TEMUR ROMANIDA ANTOROPONIMLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATI (B.Axmedov asari asosida)

Musayev Abduvali Sulaymonovich
dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi
a.musayev1962@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tilida antroponimlarning, ya’ni kishi ismlarining shakllanishi va ularning tarixiy hamda madaniy ma’nosi haqida so‘z yuritiladi. Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” romanidagi shaxs nomlari tahlil qilinib, ularning tuzilishi va mazmuni o‘rganilgan. Asardagi “bek”, “xon”, “xo‘ja”, “amir” kabi so‘zlar ismlarga qanday qo‘shilgani va ular orqali o‘sha davr jamiyatidagi ijtimoiy farqlar ifodalangani ko‘rsatib berilgan. Maqola o‘zbek antroponimikasi bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. O‘zbek adabiy tili, antroponimika, onomastika, Bo‘riboy Ahmedov, “Amir Temur” romani, shaxs nomlari, tarixiy shaxslar, lingvistik tahlil, ijtimoiy-ma’naviy mazmun, nom berish an’analari.

Abstract: This article discusses the formation of anthroponyms, i.e., personal names, in the Uzbek literary language, as well as their historical and cultural significance. The study analyzes the personal names found in Bo‘riboy Ahmedov’s novel *“Amir Temur”*, examining their structure and meaning. It is shown how words such as *“bek”*, *“khan”*, *“khoja”*, and *“amir”* were added to names and how they reflected social distinctions in the society of that time. The article contributes to enriching scientific knowledge in the field of Uzbek anthroponymy.

Key words: Uzbek literary language, anthroponymy, onomastics, Bo‘riboy Ahmedov, *“Amir Temur”* novel, personal names, historical figures, linguistic analysis, socio-cultural meaning, naming traditions.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование антропонимов, то есть личных имён, в узбекском литературном языке, а также их историческое и культурное значение. Проанализированы имена персонажей в романе Бўрибой

Ахмедова *«Амира Темура»*, изучены их структура и смысл. Показано, как такие слова, как *«бек»*, *«хан»*, *«хожа»*, *«амир»*, присоединялись к именам и отражали социальные различия в обществе того времени. Статья способствует обогащению научных знаний в области узбекской антропонимики.

Ключевые слова: узбекский литературный язык, антропонимика, ономастика, Бўрибой Ахмедов, роман *«Амир Темур»*, имена персонажей, исторические личности, лингвистический анализ, социально-культурное содержание, традиции именования.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili asrlar davomida qo‘llanib kelingan yagona o‘zbek tili taraqqiyotining yuqori shakli milliy tilning ishlanganligidir.

Antroponimika – onamastikaning kishi ismlari, ularning kelib chiqishi, tarqalishi kabi masalalarni o‘rganadi. [1, 41b.]

Kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, insonlar o‘zlarini boshqalardan ajralib turishlari uchun turli nomlardan foydalanib keladilar. Qadimda nom insonga u tug‘ilgan paytga emas, balki ulg‘ayib, voyaga yetganidan so‘ng uning jismoniy yoki aqliy rivojlanishiga qarab berilgan.

Antroponimika XX asrning 60-yillaridan turkiyshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida toponimika bilan bir qatorda alohida ilmiy yo‘naliy sifatida shakllana boshladi. O‘zbek tilshunosligida ham o‘zbek anomastikasi va antroponimikasiga oid til birliklarini, ya’ni bu soha terminologiyasini to‘plash, tartibga solish va lingvistik jihatdan o‘rganishda, anomastika va antroponimikaga oid ilmiy terminlardagi xilma-xillik nuqsonlarni bartaraf etish borasida E.Begmatovning monografik tadqiqotlari [2,263b.] anomastikaga, xususan, antroponimikaga tamal toshini qo‘ydi.

Demak yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tildagi atoqli otlarni anglatuvchi, diqqatimizni tortgan lingvistik hodisalar o‘rtasidagi munosabatni yoritishga harakat qildik.

Ushbu maqolamizda Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” romanidagi qo‘llangan shaxs arxisemali leksemalarning ma’lum bir narsa, predmeti anglatishga ko‘ra, mazmuniy guruhlarga ajratib, ularni umumiy va xususiy guruhlarga, birlashtiruvchi va farqlovchi tomonlarini tahlil qilishni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik.

“Amir Temur”romanidagi tarixiy personajlar ismlarini diqqat bilan tahlil qilar ekanmiz, ularda ijtimoiy davrdagi tabaqalanish, hokimiyatga talashish ismlarga joy nomlarining va urug‘ nomlarining qo‘shilishi o‘zaro munosabatlar ko‘rinib turadi.

Asarda qo‘llangan antroponimlarni tarkibiy jihatdan quyidagi guruhlarga ajratdik:

1.Tarixiy shaxslarni bildiruvchi antroponimlar: Amir Temur, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ilyosxo‘jaxon, Tug‘luq Temirxon, Tarag‘ay Bahodir.

Shunchaki o‘zim, xon hazrat, – Temurbek javob uchun boshqa so‘z topolmadi. (B.Ahmedov. Amir Temur. 376). *Ilyosxo‘ja Temurbekni imtihon qilishda davom etdi.* (B.Ahmedov. Amir Temur. 37-b). *Buni amir Hojibek ham, Tug‘luq Temirxon yaxshi bilishadi.* (Amir Temur. 30-b). *Bu yozuvlikni, muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning so‘zlariga qaraganda, bir to‘da buzuqi odamlar qilishgan ekan*. (Amir Temur. 51-bet). *– Fikri ojizimcha, ushbu mansabga Tarag‘oy Bahodirning farzandi arjumandi Temurbek manosib.* (Amir Temur. 107-bet).

2.Antroponimlarga urug‘ nomlarini qo‘shish: Hoji barlos, Boyazid jaloyir, Zoku barlos, Sulaymon barlos, Jaloliddin barlos, Hunduka barlos.

-Amakingiz Hoji barlos janoblari yubordilar bizni (Amir Temur. 16-bet). *– Haq gapni aytdingiz, janobi amir, to‘g‘ri maslahat, - qo‘shildi unga Boyazid jaloyir* (Amir temur. 34-bet). *– Nima, nima bo‘ldi, o‘zi? – Joki barlos cho‘chib ko‘zlarini ochdi*. (Amir Temur. 43-bet). *Shundan keyin Temurbek uch yuz sara yigitni – ularning orasida nomdor beklardan*

Sulaymon barlos, Bahrom jaloyir va Jaloliddin barloslar ham bor edi –o‘zi bilan birga olib, Kesh sari yuzlandi. (Amir Temur. 96-bet).

3. Birinchi kopmonenti “Amir” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar:

Amir Kulol allomayi zamon Shahobiddin Suhravardiyning xalfasi bo‘lib, diniy ilmlar hamda tariqat sulhini puxta egallagan bilimdon odam edi. (Amir Temur. 18-bet). *Amir Hojbek samimiyatligi va odam oxunligi bilan Temurbekda yaxshi taassurot qoldirdi.* (Amir Temur. 26-bet). *Yana anavi Qazaganning nabirasi amir Husayn ham bor*. (Amir Temur. 29-bet).

4. Antroponimlarga “bek” komponentlarining qo‘shilib kelishi: - *Temurbek, muncha xayol surmasangiz. “O‘ychi – o‘yiga yetguncha, tavakkalchi uyiga yetibdur”, degan gap bor*. (Amir Temur. 35-bet). *– Joni molimiz sizning inon-ixtiyoringizda, -dedi hamma uchun amir Hojibek*. (Amir Temur. 36-bet). *–Hamma narsa xudodin, Husaynbek. Ajal yetmagan bo‘lsa, yetti kechayu-kunduz bo‘ron turg‘onda ham odamlar tirik qolg‘onlar.* (Amir Temur. 62-bet).

5. Antroponimlarga “joy” komponentlarini qo‘shib aytish: *O‘sha avom un-nos, Mavlonozoda, Abubakr Kaloviy, Xurdak Buxoriyga o‘xshaganlar uni mug‘ul istilosidin asrab qoldi*. (Amir Temur. 119-bet). Andak xatolik bo‘libdur, bek, -dedi Kaffol Shoshiy mozorining shayxi xoja Boboxon (Amir Temur. 148-bet). *Xon bilan amir Husayn shu yerda qolishdi, asosiy kuchlar Temurbek boshchiligida shoh Shayx Ali Badaxshoniyga qarshi o‘lkaning ichkarisiga yuborildi.* (Amir Temur. 157-b).

6.Antroponimlarga “xon” komponentining qo‘shilishi: *Asirlar orasida Ilyosxo‘jaxonning o‘zi ham bor edi*. (Amir Temur. 100-b). *– Janobi oliylari, xon ibn hoqon Durjixon ibn Ilchikdoy ibn Duvaxon ibn Chig‘atoyxon ibn sohibqironi a’zam Chingizxon shu yerdalar.* (Amir Temur. 109-b). *U 1220-yili Chingizxon xuruji davrida vayron qilingandi*. (Amir Temur. 113-b). *Keyin bu xatni Durjixonga yetkazdilar, xon esa xatni Tormoshirining bevasi O‘rda xotinning qo‘liga tutqazdi.* (Amir Temur. 126-b).

7. Antroponimlarga “xo‘ja” komponentining qo‘shilishi: - *Biz, oching jiyan! – ovoz Nuridinxo‘jaga tanish tuyildi.* (Amir Temur. 102-b). *Shu payt Ilyosxo‘jaxon, “barongir qism chekinsin!” deb buyruq berdi.* (Amir Temur. 112-b). *Shu niyat bilan u yerga avval Temurxo‘ja o‘g‘lon, Jovurchi va Abbos bahodirni yetti qo‘shin qilib yubordi*. (Amir Temur. 113-b). *Amir Hindu aka bilan Dovudxo‘ja Keshdan kelgan amirlarni burnidan chiqquncha yedirib ichirdilar*. (Amir Temur. 113-b).

Xulosa qilib aytganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Onamastik nom berish “Amir temur” tarixiy romanda yuzlab antroponimlar qo‘llanganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari nom tushunchasi o‘sha davr jamiyatining turli davrlardagi madaniy jihatlari haqida muhim axborot yetkazuvchi kalit vazifasini ham o‘taydi.

Ismlarning ijtimoiy hodisa ekanligi, ismlarni tanlash motivida, shuningdek, ismlarning o‘ziga turli ijtimoiy, etnografik, diniy ma’nolar yuksalishida ham ko‘rinadi. Bundan tashqari, G.N.Gumilevning yozishicha, qadimiy davrda turklarning tug‘ilganda berilgan ismi shaxsning ijtimoiy ahvoli, jamiyatdagi o‘rniga qarab o‘zgarib turgan. [3,65b.]

Umuman olganda, ismlar jamiyatda yashaydi, jamiyat uchun yaratiladi. B.Ahmedovning “Amir Temur” tarixiy romandagi onamastika, antroponimasini o‘rganish yangi fakt va dalillar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruscha – o‘zbekcha lug‘at. I-tom. Toshkent, 2013, 41-b.
2. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, 2013. 263-b.
3. Gumilev L.N. Qadimgi turklar. Toshkent, 2007. 65-b.

4. Муқимов З. Амир Темур тузуклари. Самарқанд: “СамДУ нашриёти”, 2008. 131-б.